TEXNIK TOPSHIRIQ

«Xalqaro Hamkorlik Markazi» AJ (IBC) binosi va tutash hududini Yangi yil bayrami munosabati bilan dekorativ bezash bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish yuzasidan

1. UMUMIY QOIDALAR VA XARID PREDMETI

1.1. Xizmat ko‘rsatish predmeti: «Xalqaro Hamkorlik Markazi» AJ (IBC) binosining tashqi hududi (alleya, yashil maydon, kirish zinapoyasi), markaziy kirish portali hamda ichki xolli (1- va 2-qavatlar)ni Yangi yil bayrami munosabati bilan dekorativ va yorug‘lik-illüminatsiya elementlari bilan bezash, bayram davri mobaynida texnik sozligini ta’minlash hamda bayram yakunlanganidan so‘ng ularni demontaj qilish xizmatlarini kompleks topshirish.

1.2. Xizmat ko‘rsatish (ishlarni bajarish) joyi: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Amir Temur shoh ko‘chasi, 107B-uy («Xalqaro Hamkorlik Markazi» AJ ma’muriy binosi va unga tutash hudud).

1.3. Ishlarni bajarish muddati: Montaj va bezash ishlari shartnoma imzolangan kundan boshlab 10 (o‘n) ish kuni ichida (kechi bilan 2026-yil 10-dekabrgacha) to‘liq yakunlanishi va foydalanishga topshirilishi shart. Demontaj ishlari Buyurtmachining yozma xabarnomasiga asosan (2027-yil 15-yanvardan so‘ng) 5 (besh) ish kuni ichida bino fasadi, ichki pardozlash qoplamalari va hudud infratuzilmasiga zarar yetkazmagan holda amalga oshiriladi.

1.4. Materiallarni kelishish va ekvivalentlik tartibi: Buyurtmachi Ijrochi tomonidan taqdim etiladigan barcha Yangi yil o‘yinchoqlari, dekorativ elementlar, girlyandalar va boshqa bezaklarni tekshirish huquqiga ega. Foydalaniladigan barcha materiallar, ularning sifati, o‘lchamlari, tashqi ko‘rinishi va mazkur Texnik topshiriqning 1-ilovasidagi vizual dizayn konsepsiyasiga muvofiqligi montaj ishlari boshlanishidan oldin Buyurtmachi bilan majburiy tartibda kelishilishi shart. Ijrochi tasdiqlash uchun namunalar yoki katalog/foto-materiallarni taqdim etishi, shuningdek Buyurtmachining asosli e’tirozlari bo‘yicha zarur tuzatishlarni kiritishi shart. Buyurtmachi bilan kelishilmagan va tasdiqlanmagan dekor elementlari montaj qilishga qo‘yilmaydi. Mazkur Texnik topshiriqda keltirilgan o‘lcham, rang, yorug‘lik harorati va texnik ko‘rsatkichlarga teng yoki ulardan yuqori sifatga ega ekvivalent mahsulotlardan foydalanishga ruxsat etiladi.

2. BAJARILADIGAN ISHLAR VA ZARUR MATERIALLAR RO‘YXATI (JADVALI)

Ishtirokchi tomonidan taqdim etiladigan narx taklifi quyidagi jadvalda ko‘rsatilgan barcha dekorativ mahsulotlar va uskunalar qiymatini, transport va yetkazib berish xarajatlarini, yig‘ish, montaj qilish, elektr tarmog‘iga ulash, bayram davridagi texnik nazorat hamda yakuniy demontaj ishlarini to‘liq o‘z ichiga olishi shart:

№	Xizmat va mahsulot nomi (texnik tavsifi)	O‘lchov birligi	Miqdori (kamida)
I. IBC binosi tashqi hududi (alleya, yashil maydon va kirish zinapoyasi)			
1	Alleya va yashil maydondagi archa hamda ignabargli daraxtlarni (archa, tuya, qoraqarag‘ay va boshqa turdagi daraxtlar) tashqi muhitga chidamli IP65 himoya darajali, issiq oq nurli (2700–3000K) svetodiodli girlyandalar bilan zich o‘rab bezash (40 dona daraxt uchun o‘rtacha 21 m. dan, jami kamida 840 m. girlyanda, montaj va demontaj ishlari bilan)	dona	40
3	Yashil maydondagi manzarali sharsimon va shaklli butalarni (topiariy, spiralli archalar) IP65 himoya darajali, issiq oq nurli (2700–3000K) svetodiodli girlyandalar bilan bezash (42 dona buta uchun o‘rtacha 7 m. dan, jami kamida 294 m. girlyanda, montaj va demontaj ishlari bilan)	dona	42
4	3D «Bug‘u» hajmli yorug‘lik haykali (korroziyaga chidamli bo‘yalgan/alyuminiy metall karkasli, IP65 darajali issiq oq nurli svetodiodli girlyanda bilan zich o‘ralgan, balandligi kamida 1,3–1,6 m, turgan va o‘tlayotgan/yotgan kompozitsiya ko‘rinishida, shamolga chidamli mahkamlash va montaj-demontaj ishlari bilan)	dona	4

№	Xizmat va mahsulot nomi (texnik tavsifi)	O‘lchov birligi	Miqdori (kamida)
5	3D «Yulduz» hajmli yorug‘lik dekorativ installyatsiyasi (metall karkasli, IP65 darajali issiq oq nurli svetodiodli dyuralayt va girlyanda bilan jihozlangan, balandligi kamida 2,0 m, tayanch asosga mustahkam o‘rnatish va montaj-demontaj ishlari bilan)	dona	1
6	3D «Sovg‘a qutisi» hajmli yorug‘lik kompozitsiyasi (metall/alyuminiy karkasli, tilla-qizil dekorativ bantli, IP65 darajali issiq oq nurli svetodiodli girlyandali, o‘lchamlari 0,6×0,6×0,6 m dan 0,9×0,9×0,9 m gacha bo‘lgan har xil o‘lchamda, montaj-demontaj ishlari bilan)	dona	7
7	3D «Yorug‘lik shari» (sfera) dekorativ elementi (metall karkasli, IP65 darajali issiq oq nurli svetodiodli girlyanda bilan o‘ralgan, diametri kamida 0.6–1.0 m, tayanchga mahkamlash va montaj-demontaj ishlari bilan)	dona	6
8	3D «Konussimon yorug‘lik archasi» (metall karkasli, IP65 darajali issiq oq nurli svetodiodli girlyanda bilan zich o‘ralgan, balandligi kamida 2,2–2,8 m, tayanchga mahkamlash va montaj-demontaj ishlari bilan)	dona	2
9	Alleya va yashil maydon bordyurlari perimetri bo‘ylab IP65 darajali suv o‘tkazmaydigan issiq oq nurli svetodiodli dyuralayt (kontur chirog‘i) va mahkamlash profillarini o‘rnatish (montaj va demontaj ishlari bilan)	metr	100
10	Tashqi asosiy kirish zinapoyasi tutqichlarini (perilalarini) zich sun’iy ignabargli girlyanda (kamida 20 sm.), IP65 darajali svetodiodli girlyanda (kamida 60 sm.), tilla va qizil rangdagi sinmaydigan sharlar hamda dekorativ qizil rezavor shoxchalar (kamida 30 dona) bilan bezash (montaj va demontaj ishlari bilan)	metr	18
II. IBC binosi kirish qismi va fotozona			
11	Markaziy kirish eshigi (aylanma eshik) bezash	metr	22
12	markaziy yirik qizil baxmal bant (kamida 1,2×0,9 m),	dona	2
13	qizil shoxchalar va IP65 darajali svetodiodli girlyanda	metr	22
14	portalini qorli sun’iy ignabargli zich girlyanda bilan P (П)-simon ark shaklida bezash (montaj va demontaj ishlari bilan)	dona	2
15	«INTERNATIONAL BUSINESS CENTER» logotipli maxsus Yangi yil fotozonasini tayyorlash va o‘rnatish (o‘lchami kamida 3,7×2,8 m): mustahkam metall karkas, to‘q qizil (bordo) rangli kompozit/banner asos, bo‘rtma tilla rangli logotip va qorparchalar, perimetri bo‘ylab tilla naqshli IP65 yorug‘lik karkas ramkasi, yuqori qismida yirik qizil yaltiroq 3D bant, yon burchaklarda qorli ignabarg va rezavorli dekor kompozitsiyalari (tayyorlash, o‘rnatish va demontaj ishlari bilan)	to‘plam	1
III. IBC binosi ichki xolli (1- va 2-qavatlar)			
16	Markaziy xollga balandligi kamida 5 m bo‘lgan karkasli bosh Yangi yil archasini o‘rnatish va bezash: zich ignabargli karkasli archa (1 dona), uchiga o‘rnatiladigan yirik yorug‘lik «Yulduz» (balandligi kamida 0,6 m), issiq oq nurli svetodiodli girlyanda (kamida 60 m.), keng tilla dekorativ lenta (kamida 60 m.), yirik tilla baxmal bantlar (kamida 12 dona), tilla va zumrad-yashil rangdagi sinmaydigan yirik/o‘rta sharlar va bezaklar (kamida 350 dona) hamda archa ostiga joylashtiriladigan tilla va zumrad-yashil rangdagi dekorativ sovg‘a qutilari (kamida 24 dona, har xil o‘lchamda) (yig‘ish, bezash va demontaj ishlari bilan). Archani karkasi yegma konstruksiyalardan iborat bo‘lishi lozim.	to‘plam	1
17	Xolldagi 10 ta kirish turniketlari (A va C bloklar) ustki qismini sun’iy ignabargli girlyanda (jami kamida 12 sm.), svetodiodli girlyanda (kamida 2,20 m.), tilla baxmal bantlar (kamida 2 dona) hamda tilla va zumrad-yashil sharlar (kamida 20 dona) bilan bezash (10 ta turniket qatori uchun, montaj va demontaj ishlari bilan)	to‘plam	10
18	Xolldagi 4 ta resepshin (ma’lumot) peshtaxtalarini sun’iy ignabargli girlyanda	metr	20

№	Xizmat va mahsulot nomi (texnik tavsifi)	O‘lchov birligi	Miqdori (kamida)
19	svetodiodli girlyanda	metr	20
20	tilla baxmal bantlar	dona	8
21	zumrad-yashil sharlar	dona	80
22	2 va 3 qavat galereyasi va zinapoya shisha to‘siqlari (perilalari) tutqichlarini (o‘ng va chap qanotlar, jami) bezash (montaj va demontaj ishlari bilan)	metr	80
23	sun’iy ignabargli girlyanda	metr	80
24	svetodiodli girlyanda	metr	80
25	yirik tilla baxmal bantlar	dona	40
26	tilla va zumrad-yashil sharlar	dona	300

3. ASOSIY MATERIALLARNING YIG‘MA KO‘RSATKICHLARI (MA’LUMOT UCHUN)

Mazkur jadval pudratchi tomonidan obyektga olib kiriladigan asosiy bezak elementlarining umumiy minimal hajmini tezkor nazorat qilish uchun keltirilgan:

Asosiy material / element nomi	O‘lchov birligi	Jami minimal miqdori (metrda)
Tashqi muhit uchun svetodiodli girlyanda (IP65, issiq oq nurli, 2700–3000K; 840 m + 294 m + 22 m)	m.	1 156
Tashqi muhit uchun svetodiodli dyuralayt (IP65, issiq oq nurli, mahkamlash profili bilan; 9-band bo‘yicha)	m	100
Bino ichki qismi uchun svetodiodli girlyanda (issiq oq nurli, 2700–3000K; 60 m + 22 m + 20 m + 80 m)	m	182
Bosh karkasli Yangi yil archasi (balandligi kamida 5 m, uchki yulduzi bilan)	dona	1
3D hajmli yorug‘lik karkas haykallari (Bug‘u – 4, Yulduz – 1, Sovg‘a qutisi – 7, Shar – 6, Konus archa – 2)	dona	20
Maxsus «INTERNATIONAL BUSINESS CENTER» logotipli 3D yorug‘lik fotozonasi (3,7×2,8 m)	to‘plam	1
Sinmaydigan dekorativ Yangi yil sharlari va bezak o‘yinchoqlari (350 + 200 + 80 + 300; rezavor shoxchalar alohida hisoblanadi)	dona	930
Dekorativ baxmal bantlar (qizil va tilla rangda: 12 + 20 + 8 + 40 + 2)	dona	82
Archa osti uchun dekorativ sovg‘a qutilari (tilla va zumrad-yashil rangda)	dona	24

4. TEXNIK XAVFSIZLIK, IJROCHIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR VA KAFOLAT

4.1. Elektr va yong‘in xavfsizligi talablari: Ochiq osmon ostida (tashqi hudud, alleya, kirish portali va tashqi zinapoyada) o‘rnatiladigan barcha elektr yoritish jihozlari, svetodiodli girlyandalar, dyuralaytlar, pasaytiruvchi transformatorlar va ulash qutilari namlik va changdan himoya darajasi kamida IP65 bo‘lishi, 220V/24V (yoki 36V) xavfsiz kuchlanish tizimida ishlashi hamda qisqa tutashuv va tok oqishiga qarshi avtomatik himoya qurilmalari (UZO) bilan ta’minlanishi shart. Bino ichki qismidagi barcha sun’iy ignabargli bezaklar va elektr girlyandalar yong‘inga chidamli va sertifikatlangan materiallardan tayyorlangan bo‘lishi lozim.

4.2. Qo‘shimcha materiallar va maxsus texnika ta’minoti: Ushbu loyiha doirasida ishlarni bajarish uchun zarur bo‘lishi mumkin bo‘lgan barcha qo‘shimcha materiallar, ehtiyot qismlar, sarflanadigan elementlar (xomutlar, po‘lat troslar, mahkamlash kronshteynlari, uzaytirgichlar, himoya avtomatlari), zarur asbob-uskunalar va maxsus texnika (avtovishka, qurilish havozalari/narvonlar), shuningdek har qanday qo‘shimcha kabel mahsulotlari Ijrochi (pudratchi) tomonidan mustaqil ravishda va o‘z hisobidan ta’minlanadi hamda sotib olinadi. Loyihani bajarish jarayonida materiallar yoki butlovchi qismlarga qo‘shimcha ehtiyojlar aniqlangan taqdirda, Ijrochi Buyurtmachi tomonidan qo‘shimcha moliyalashtirishsiz ularni sotib olish va obyektga yetkazib berishni mustaqil ravishda amalga oshiradi.

4.3. Mehnat muhofazasi va mulkiy javobgarlik: Montaj va demontaj ishlariga jalb etiladigan xodimlar tegishli elektr xavfsizligi guruhiga hamda balandlikda ishlash ruxsatnomasiga ega bo‘lishi shart. Ishlarni bajarish davrida mehnatni muhofaza qilish, texnika xavfsizligi va yong‘in xavfsizligi qoidalariga rioya etilishi uchun Ijrochi to‘liq javobgar hisoblanadi. Bino fasadi, oynalari, marmar qoplamalari yoki yashil maydon o‘simliklariga yetkazilgan har qanday moddiy zarar Ijrochi hisobidan to‘liq qoplanadi.

4.4. Kafolat va tezkor texnik xizmat ko‘rsatish: Ijrochi o‘rnatilgan barcha bezaklar va yoritish tizimlarining bayram davri mobaynida (montaj yakunlangan kundan boshlab demontaj boshlangunga qadar) uzluksiz, nuqsonsiz va xavfsiz ishlashini kafolatlaydi. Har qanday nosozlik yuzaga kelgan taqdirda, Ijrochi Buyurtmachining murojaati (telefon yoki elektron xabar orqali) kelib tushgan vaqtdan boshlab 24 soat ichida o‘z hisobidan ta’mirlash yoki almashtirish ishlarini bajarishi shart.

4.5. Ishlarni topshirish va qabul qilish tartibi: Bajarilgan ishlarni qabul qilish Buyurtmachi vakillari ishtirokida joyida ko‘rikdan o‘tkazish hamda ikki tomonlama imzolanadigan «Bajarilgan ishlarni topshirish-qabul qilish dalolatnomasi» va elektron hisobvaraq-faktura (EHF) asosida amalga oshiriladi. Barcha materiallar va uskunalar amaldagi texnik reglamentlar hamda sifat standartlariga muvofiq bo‘lishi shart; Ijrochi obyektni zarur resurslar bilan to‘liq butlash, ishlarning sifati va o‘z vaqtida bajarilishi uchun to‘liq javobgardir.

Texnik topshiriqni ishlab chiqdi:
Ijarachilar bilan ishlash bo‘limi
Bosh mutaxassisi — H.H. Kafiyev
Yetakchi mutaxassisi — B.B. Mustaqimov

Kelishildi:
Ijarachilar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i — K.A. Shakirov

Texnik topshiriqqa
1-ILOVA

VIZUAL DIZAYN KONSEPSIYASI (OBYEKTning HOZIRGI VA BAJARILGANDAN KEYINGI HOLATI)

Hozirgi holati	Bajarilgandan keying holati
IBC binosi	
	
	

Hozirgi holati	Bajarilgandan keying holati
	
	
	

Hozirgi holati	Bajarilgandan keying holati
	
	
	

Hozirgi holati	Bajarilgandan keying holati
	
	